



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DAVLAT GEOLOGIYA VA MINERAL RESURLAR QO'MITASI**

**«O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XAVFLI GEOLOGIK JARAYONLARNI KUZATISH DAVLAT XIZMATI»
DAVLAT MUASSASASI**

BUYRUG'I

2022 yil 23 " 02

10-ildan-son

Toshkent shahri

**Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish
Davlat xizmatida korrupsiyaga qarshi
kurashish bo'yicha ichki normativ-
hujjatlar to'plamini tasdiqlash to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 6 iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5177-son Qarori hamda Davlat geologiya qo'mitasining 2022 yil 3 fevraldagi 18-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini joriy etuvchi tavsiyaviy hujjatlar to'plami loyihalari ishlab chiqilganligi hamda Davlat geologiya qo'mitasining 2022 yil 3 fevraldagi 18-sonli buyrug'i bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki normativ-hujjatlar to'plami tasdiqlanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin;

2. Xavfli geologik jarayonlarni kuzatish xizmati (Davlat kuzatish xizmati) ning mazkur buyrug'iga asosan quyidagi normativ-hujjatlar tasdiqlansin:

- Davlat kuzatish xizmatining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha siyosati 1- ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmatining korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash uslubiyoti 2- ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmati manfaatlar to'qnashuvini boshqarish bo'yicha Nizom 3- ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmati aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy hatti-harakatlar to'g'risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko'rib chiqish Reglamenti 4- ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmati xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitishni tashkil qilish bo'yicha Yo'riqnoma 5- ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmatiga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha Yo'riqnoma 7- ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmatida korruptsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha Nizom 9-ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmati xodimlarining korruptsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holati ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha Reglamenti 10-ilovaga muvofiq;

- Davlat kuzatish xizmatining Ichki nazorat tuzilmasi rahbarining lavozim Yo'riqnomasi 12-ilovaga muvofiq.

3. Davlat kuzatish xizmati Matbuot kotibasi (Nurlibaeva) mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ushbu normativ-hujjatlar to'plami Davlat kuzatish xizmati rasmiy sahifalarida joylashtirilishi ta'minlansin.

4. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshliq



G.Bimurzayev